



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнесинг иқтисодийёт тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

**INVESTITSIYA SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH MEKANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

УЛУЧШЕНИЕ МЕХАНИЗМА РЕАЛИЗАЦИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ

IMPROVING THE MECHANISM FOR IMPLEMENTING INVESTMENT POLICY

Raxmanov Bekzod Ibragimovich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti,
“Makroiqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu tezisdá O‘zbekiston Respublikasining investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida UNCTAD va AQSh Davlat departamenti ma‘lumotlariga tayanib, 2020-2024-yillarda mamlakatimizga kirib kelgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TXI) dinamikasi va ularning donor-mamlakatlar kesimidagi tarkibiy tuzilishi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya siyosati, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, UNCTAD, donor-mamlakatlar, davlat kafolati, risklarni taqsimlash, investitsion muhit, tijorat banklari.

В тезисе анализируются вопросы совершенствования механизмов реализации инвестиционной политики в Республике Узбекистан. На основе данных ЮНКТАД и Государственного департамента США исследована динамика прямых иностранных инвестиций (ПИИ) за 2020-2024 годы и их структура в разрезе стран-доноров.

Ключевые слова: инвестиционная политика, прямые иностранные инвестиции, ЮНКТАД, страны-доноры, государственная гарантия, распределение рисков, инвестиционный климат.

The paper analyzes the issues of improving the mechanisms for implementing investment policy in the Republic of Uzbekistan. Based on data from UNCTAD and the US Department of State, the dynamics of foreign direct investment for 2020–2024 and its structure broken down by investor countries are investigated.

Keywords. Investment policy, foreign direct investment, UNCTAD, investor countries, state guarantee, risk allocation, investment climate.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va xalqaro kapital harakatining jadallashuvi sharoitida milliy iqtisodiyotlarning barqaror o‘shirish sur‘atlarini ta‘minlash bevosita samarali investitsiya siyosatiga bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlarning strategik yo‘nalishlaridan biri – bu qulay investitsiya muhitini shakllantirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb etish va investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmlarini tubdan takomillashtirishdan iborat.

So‘nggi yillarda milliy iqtisodiyotimizga jalb qilinayotgan kapital hajmi oshgan bo‘lsa-da, tashqi iqtisodiy geosiyosiy shoklar va makroiqtisodiy tebranishlar xorijiy investorlarning mamlakatimizga nisbatan strategik yondashuvlarini chuqur tahlil qilishni talab etmoqda. Ushbu nuqtai nazardan, nufuzli xalqaro tashkilotlar, xususan, BMTning Savdo va taraqqiyot konferensiyasi hamda yetakchi xorijiy tahliliy markazlarning statistik ma‘lumotlarini o‘rganish va ularning asosida investitsiya faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini modifikatsiya qilish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Investitsiya siyosatining nazariy-uslubiy asoslari, xorijiy kapitalni jalb qilish strategiyalari va davlat-xususiy sherikligi doirasida risklarni boshqarish masalalari bir qator xorijiy va mahalliy

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumladan, J.M.Keyns [1], P.Samuelson [2], J.Dunning [3] kabi klassik iqtisodchilar xorijiy investitsiyalarning multiplikativ samarasini asoslab berishgan. O‘zbekiston sharoitida investitsiya muhitini va investitsiya siyosatining amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish muammolari iqtisodiyot professorlari va yetakchi tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilgan. [4] Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash va ekonometrik modellashirish metodlaridan foydalanilgan.


Asosiy qism va tahlil natijalari. O‘zbekiston Respublikasining investitsiya siyosati samaradorligini baholash uchun dastlab so‘nggi besh yildagi xorijiy kapital oqimining umumiy makroiqtisodiy tendensiyalarini tahlil qilish lozim. BMTning UNCTAD (World Investment Report 2025) ma’lumotlariga muvofiq, O‘zbekistonga kirib kelgan sof to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi dinamikasi o‘ziga xos o‘zgaruvchanlikka ega bo‘ldi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari dinamikasi [5]

Ko‘rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
TTXI hajmi (mln. doll.)	1 728	2 275	2 498	2 156	2 836
o‘sish sur‘ati (%)	–	+31.7%	+9.8%	-13.7%	+31.5%
YAIMdagi ulushi (%)	7.5%	9.1%	9.5%	6.5%	6.7%
Jamlangan (yig‘ilgan) TXI (mln USD)	10 288	11 616	13 845	14 867	16 728


Yuqorida keltirilgan ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2020-2022-yillarda O‘zbekistonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi barqaror o‘tib, 1 728 mln. dollardan 2 498 mln. dollarga yetdi. Mos ravishda To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning Yalpi Ichki Mahsulotdagi ulushi ham 7.5% dan 9.5% gacha ko‘tarildi. Biroq, 2023-yildagi global geosiyosiy keskinliklar, jahon moliya bozorlaridagi foiz stavkalarining oshishi va xalqaro kapital harakatining sekinlashishi natijasida mamlakatimizda investitsiya oqimi -13.7% ga qisqarib, 2 156 mln. dollarni tashkil etdi. 2024-yilga kelib investitsion siyosatdagi institutsional o‘zgarishlar tufayli o‘sish sur‘ati qayta tiklandi (+31.5%) va yalpi jamlangan xorijiy kapital hajmi 16 728 mln dollardan oshdi. Dunyodagi TTXI sof oqimi tendensiyasini 1-rasmda ko‘rish mumkin.



1-rasm. Global TTXI dinamikasi [6]

Bu sekinlashish asosan 2022 yilda vujudga kelgan Rossiya va Ukraina o‘rtasidagi mojaro va unga nisbatan Yevropa Ittifoqi tomonidan qo‘llanilgan sanksiyalarning natijasidir. Bu investorlarni kelgusidagi o‘zgarishlarning keskin bo‘lishi mumkinligi xavfini o‘zida aks ettiradi.

O‘zbekiston uchun investitsiya siyosatining geosiyosiy va geografik yo‘nalishlarini aniqlash maqsadida donor-mamlakatlar ulushini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. AQSh Davlat departamenti tomonidan 2024 yilda e‘lon qilingan investitsion muhit hisobotiga ko‘ra, O‘zbekistonga yo‘naltirilgan xalqaro kapital tarkibida sezilarli darajada konsentratsiya mavjud (2-rasm). O‘zbekistonga jalb qilingan TTXI sur‘atlarida top uchta mamlakat: Xitoy, Rossiya va Saudiya Arabiston bo‘lib ularning ulushi 46,9% ni tashkil qiladi. Bundan ko‘rishimiz mumkinki mamlakatimizga jalb qilinayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning hajmi aynan shu uchta mamlakatning iqtisodiyotiga bog‘liq bo‘lib qolgan. Demak, O‘zbekiston uchun nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning hajmi balki uning diversifikatsiyasiga ham e‘tibor qaratish lozimdir.



2-rasm. 2023-yilda O‘zbekistonga yo‘naltirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning donor-mamlakatlar kesimida taqsimlanishi [5, 6]

2-rasm ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyotidagi xorijiy kapital tarkibida Xitoy yetakchi o‘rinni egallab turibdi (25.6% yoki 1.84 mlrd dollar). Bu asosan energetika, muqobil resurslar, kimyo sanoati va infratuzilma loyihalariga to‘g‘ri keladi. Ikkinchi o‘rinda Rossiya Federatsiyasi (13.4% yoki 965 mln dollar) joylashgan bo‘lib, investitsiyalar asosan tog‘-kon, telekommunikatsiya va qayta ishlash tarmoqlariga yo‘naltirilgan. Shuningdek, so‘nggi yillarda Yaqin Sharq mamlakatlari, xususan, Saudiya Arabistoni (7.9%) va BAA (5.8%) yirik yashil energetika (ACWA Power, Masdar) loyihalari orqali faol kirib kelmoqda. Yevropa Ittifoqidan esa Germaniya (4.3%) yetakchi oltilikni yakunlaydi. Ushbu geografik konsentratsiya shuni ko‘rsatadiki, mamlakat investitsiya siyosati tashqi iqtisodiy bog‘liqlik xavfini kamaytirish uchun diversifikatsiya mexanizmlariga muhtoj.

Ushbu sof investitsiyalar oqimining tarmoqlar bo‘yicha taqsimlanishi makroiqtisodiy barqarorlik va modernizatsiya siyosatini baholash imkonini beradi. Eng katta kapital sig‘imiga ega bo‘lgan soha – Energetika tarmog‘i bo‘lib, umumiy sof oqimning 39.2 foizini (845.15 mln dollar) tashkil etdi. Ushbu mablag‘larning asosiy qismi muqobil “yashil” energetika loyihalariga (quyosh va shamol fotoelektr stansiyalari) yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotiga 2023 yilda kiritilgan real sof TXIning tarmoqlar kesimidagi hajmi (Markaziy bank To‘lov balansi ko‘rsatkichlari asosida) [7]

Tarmoqlar va sohalar nomi	Ulushi (%)	Real sof hajmi (mln. USD)	Asosiy xorijiy investor davlatlar
1. Energetika (shu jumladan qayta tiklanuvchi energetika)	39.2%	845.2	Saudiya Arabistoni, BAA, Xitoy
2. Sanoat va qayta ishlab chiqarish (kimyo, metallurgiya)	25.4%	547.6	Rossiya, Xitoy, Germaniya
3. Transport, logistika va telekommunikatsiyalar	12.8%	275.9	Xitoy (Huawei), Turkiya
4. Avtomobilsozlik va mashinasozlik (BYD loyihasi)	8.5%	183.3	Xitoy (BYD), Janubiy Koreya
5. Boshqa tarmoqlar (qurilish, to‘qimachilik, xizmatlar)	14.1%	304.0	Turkiya, Yevropa Ittifoqi va b.
JAMI REAL SOF TXI (To‘lov balansi bo‘yicha):	100.0%	2 156.0	Global hamkorlar

Jadval ma’lumotlarining makroiqtisodiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan sof TXI tarkibida kuchli tarmoqviy konsentratsiyalashuv mavjud. Energetika sektorining ulushi qariyb 40 foizni tashkil etib, qolgan tarmoqlardan sezilarli darajada uzilib ketgan. Bu holat mamlakatda qayta tiklanuvchi va an’anaviy energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan yirik loyihalarning faolligidan dalolat beradi.

Biroq, kapitalning birgina tarmoqda bunday yuqori darajada to‘planishi milliy iqtisodiyotning tashqi konyunktura xavf-xatarlariga va energetika bozoridagi narx tebranishlariga nisbatan sezuvchanligini oshirishi mumkin. Ayni paytda, transport, logistika va AKT sohalarining ulushi (12.8%), shuningdek, avtomobilsozlik tarmog‘i (8.5%) mamlakatda yuqori texnologiyali va xizmat ko‘rsatish sektorlarini rivojlantirish uchun hali to‘liq ishga solinmagan potensial mavjudligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Keynes, J. M. The General Theory of Employment, Interest, and Money. – London : Palgrave Macmillan, 1936. – 428 p.
2. Samuelson, P. A. Interactions between the Multiplier Analysis and the Principle of Acceleration // The Review of Economics and Statistics. – 1939. – Vol. 21, No. 2. – P. 75–78.
3. Dunning, J. H. The Eclectic Paradigm of International Production: A Restatement and Some Possible Extensions // Journal of International Business Studies. – 1988. – Vol. 19, No. 1. – P. 1–31.
4. Valiyev B.B. Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlashda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish: Iqt. fan. doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: 2017. – 46 b; Муинов Ж., Федящева Г. Прогнозирование инвестиционных процессов и механизмы дальнейшего улучшения инвестиционного климата // Отчет о научно-исследовательской работе за 2015-2017 гг. ИПМИ, 2017 г.

5. UNCTAD. World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Government. – Geneva: United Nations, 2024.
6. UNCTAD. World Investment Report 2024: Investment Facilitation and Digital Government. – Geneva: United Nations, 2024. – 184 p.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. O‘zbekiston Respublikasi to‘lov balansi, xalqaro investitsiyaviy pozitsiyasi va tashqi qarzi: 2024 yil uchun yillik hisobot. – Toshkent, 2025.

UDK: 685.34

**CHARM-POYABZAL SANOATI KORXONALARIDA SIFATNI BOSHQARISH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

**WAYS TO IMPROVE THE QUALITY MANAGEMENT SYSTEM IN LEATHER AND
FOOTWEAR INDUSTRY ENTERPRISES**

**ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ НА
ПРЕДПРИЯТИЯХ КОЖЕВЕННО-ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

Ashurova Guljahon Nurallyevna

University of economics and pedagogy NOTM

Annotatsiya

Ushbu maqolada bozor iqtisodiyot sharoitida charm-poyabzal sanoat korxonalari sifat menejmenti tizimi boshqarish va uni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar tahlil etilgan. Poyabzal sanoati yengil sanoatning eng muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Bugungi globallashuv sharoitida poyabzal korxonalarining raqobatbardoshlik darajasi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligi iqtisodiyot barqarorligining muhim omillaridan biridir.

Kalit so‘zlar: Sifat, sifat menejmenti tizimi, bozor iqtisodiyot, charm-poyabzal sanoat korxonalari, islohotlar, kadrlar salohiyati, innovatsiyalar, charm-poyabzal ishlab chiqarish.

В данной статье проанализированы система менеджмента качества на предприятиях кожевенно-обувной промышленности в условиях рыночной экономики и факторы, влияющие на её развитие. Обувная промышленность является одной из важнейших отраслей лёгкой промышленности и занимает значимое место в развитии национальной экономики. Эта отрасль не только удовлетворяет повседневные потребности населения, но и вносит существенный вклад в экономический рост, обеспечение занятости, увеличение экспортного потенциала и развитие региональной промышленности. В условиях современной глобализации уровень конкурентоспособности обувных предприятий, использование инновационных технологий и эффективность производства являются важнейшими факторами экономической стабильности.

Ключевые слова: качество, система менеджмента качества, рыночная экономика, предприятия кожевенно-обувной промышленности, реформы, кадровый потенциал, инновации, производство кожевенно-обувной продукции

This article analyzes the quality management system of leather and footwear enterprises in market economy conditions and the factors influencing its development. The footwear industry is one of the most important branches of light industry and plays a significant role in the development of the national economy. This sector not only satisfies the daily needs of the population but also contributes significantly to economic growth, employment, increasing export potential, and regional industrialization. In today’s globalization environment, the competitiveness of footwear enterprises,